O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGINING JAMOATCHILIK VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI BILAN ALOQALAR BO‘LIMI

**2021 yil faoliyati bo‘yicha natijalari**

# AKT VAZIRLIGI MATBUOT XIZMATINI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologi yalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2019 yil 18 noyabr 362-son buyrug‘i bilan **Axmatov Sherzod Mir zajaxonovich** Jamoatchilik va ommaviy axb orot vositalari bilan aloqalar bo‘limi boshlig‘i -
Matbuot kotibi lavozimiga 2019 yil 18 noyab rdan tayinlangan.

Axborot xizmatida **3 nafar** shtat ajratilgan. X ozirda jami 5 ta - 3 nafar shtatda va 2 nafar jalb qilingan xodim faoliyat yuritadi (matbuot kotibi va 4 n afar xodim).



# FAOLIYAT YURITISH UCHUN NORMATIV-HUQUQIY BAZA

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari
va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining
Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan al
oqalar bo‘limi qator normativ-
huquqiy hujjatlarga asosan faoliyat ko‘rsatadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
“**Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini
ta’minlash hamda davlat organlari va tashki
otlari axborot xizmatlari faoliyatii rivojlanti
rish bo‘yicha qo‘shimcha chora-
tadbirlar to‘g‘risida**” Qarori davlat va ho‘jalik b
oshqaruvi organlarida tashkil etilgan axborot xizma
tlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hujjat hisobl
anadi.



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING “OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MUSTAQILLIGINI TA’MINLASH HAMDA DAVLAT ORGANLARI VA TASHKIOTLARI AX BOROT XIZMATLARI FAOLIYATII RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHOR A-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA” QARORI

3. Quyidagilar davlat hokimiyati organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, respublika ahamiyatiga molik idora, muassasa hamda boshqa davlat va nodavla t tashkilotlarining (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) axborot xizmatlari, matbuot markazlari, jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha xizmatlarining (keyingi o‘rinlarda — axborot xizmatlari) asosiy vazifalari etib belgilansin. (3-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 dekabrdagi PF-5892-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son)

- davlat organlari va tashkilotlari faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etish yo‘li bilan aholiga muntazam, to‘liq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish;
- davlat organlari va tashkilotlarida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni haqida axborot berish va yoritish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish; davlat organlari va tashkilotlarining ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o‘rganish;
- axborot siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) bilan samarali amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish, axborot xizmatlari bilan doimiy ishlovchi jurnalistlar va blogerlar doirasida tezkor ma’lumotlarni tarqatish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda keng aholi qatlamlarining ishtirokini ta’minlash maqsadida ekspertlar guruhini shakllantirish;
  muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining chiqishlarini tashkil etish;
- axborot makoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, tanqidiy va keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish, ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog‘ida tegishli davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga aloqador axborotni tarqatish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish;
  davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish uchun xabar, ma’lumot, sharh va boshqa axborot-tahliliy materiallar tayyorlash;
- davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati to‘g‘risida jamoatchilik fikrini, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining pozitsiyasini o‘rganish, dolzarb takliflar ishlab chiqish va ular to‘g‘risida davlat organlari va tashkilotlari rahbariyatiga axborot berib borish;
  davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini xorijiy ommaviy axborot vositalarida sifatli yoritish maqsadida vakolatli vazirliklar va idoralar orqali O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O‘zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari (bosma mahsulotlar, foto-, audio-, videomateriallar va h.k.) bilan ta’minlash;
- davlat organlari va tashkilotlarining vakolatiga kiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari hamda ularning tasdiqlangan matnlarini belgilangan tartibda o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirish;
  davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatiga aloqador matnli, foto-, audio- va videomateriallardan iborat ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yangilab borish.

# AXBOROT XIZMATI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRUVCHI HUJJATLAR

Bundan tashqari,Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **Davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmati rahbarini lavozimga tayinlachni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiyoli uning hududiy boshqarmasi bilan kelishish, ularni attestatsiyadan oʻtkazush hamda ish samaradorligini baholash tartibi** toʻgʻrisida Nizom qabul qilindi.



Unga koʻra Davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmati rahbarlari tegishli ravishda Agentlik va uning hududiy boshqarmalarida har uch yil da bir marotaba attestatsiyadan oʻtadi. Bundan tashqariOʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonida n davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari matbuot kotiblarining jamo atchilikka Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari, Oʻzbekiston Respub likasi Prezidenti qaror va topshiriqlarining ijrosi, olib borilayotgan isloh otlarning maqsad va vazifalari haqida tezkor, xolis hamda birinchi manb aa sifatida toʻliq axborot yetkazishi, jamoatchilik va ommaviy axborot v ositalari faol muloqot oʻrnatish, e’lon qilinayotgan tanqidiy materiallarg a oʻz vaqtida va sifatli munosabat bildirish borasidagi faoliyatini oʻrgani b, baholab kelmoqda

# AKT VAZIRLIGI AXBOROT XIZMATI FAOLIYATINI BAHOLASH

2021 yilda Agentlik tomonidan respublika darajasidagi 139 ta (o‘tgan yili 125 ta) tashkilot va idoralar hamda 206 ta (o‘tgan yili 201 ta) tuman va shahar hokimliklari matbuot kotiblarining 2021 yil I yarim yillik faoliyati samaradorligi o‘rganildi.

Unga asosanO‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limining faoliyati yuqori darajada baholangan.AKT vazirligining Axborot xizmati **87,4 ball** to‘plab, kuchli o‘nlikka kirgan (https://aoka.uz/uzb/news/1166).



# 2021-YILDA RAHBARIYAT TOMONIDAN OAVDA CHIQISHLAR

O‘tgan 2021 yilda AKT vazirligining rahbarining OAVda e’lon qilingan materiallari, tele- va radioefirlardagi chiqishlari soni **188 taga** yetkazildi.

Hozirgi kunda AKT vazirligi rahbarining ijtimoiy tarmoqlardagi kuzatuvchilari soni bugunga kelib 55857 tani tashkil etib, shundan **Facebook’da 42302 ta**, **Telegram’da 10847 ta**, **Instagram’da 2708 ta** yetdi.


Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН

ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК

Ўзбекистон – Жанубий Корея:

АКТ СОҲАСИДАГИ САМАРАЛИ ҲАМКОРЛИКНИНГ ЯНГИ САҲИФАСИ



# JAMOATCHILIK BILAN MULOQOT OLIB BORISH

Vazirlik tomonidan ochiqlik va oshkoralikni oshirish bo'yicha ham choralar ko'rilmoqda. Jumladan, AKT vazirligi Matbuot xizmati ishtirokida muntazam ravishda ommaviy tadbirlar (matbuot anjuman, ochiq muloqot, onlayn-brifinglar) tashkil etiladi.

2021yil davomida OAV va fuqarolik jamiyati institutlari uchun o'tkazilgan press-konferensiyalar hamda brifinglar soni **76 tani** tashkil etadi.








# OAV BILAN SAMARALI HAMKORLIK

Vazirlik o‘z faoliyatida ommaviy axborot vositalari bilan samarali muloqot olib borish, keng jamoatchilikni tezkorlik bilan axborot bilan ta’minlab berish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Joriy yilning 2021-yil davomida mahalliy teleradiokanallarida jami 2000 dan ortiq axborot-tahliliy lavha va ko‘rsatuvlar tayyorlangan bo‘lib, mahalliy elektron va bosma ommaviy axborot vositalarida jami 2000 tadan ortiq axborot va tahliliy materiallar chop etilgan.

Hozirgi kunda AKT vazirligining Matbuot xizmati qator ommaviy axborot vositalar bilan samarali hamkorlik qiladi. Jumladan:

- **Teleradiokanallar**:“O‘zbekiston 24”, “Uzreport TV”, “Yoshlar”, “Toshkent” “Sevimli”, “Zo‘r TV”;
- **Nashrlar**: “Хабар”, “Янги Ўзбекистон”, “Правда Востока”, “Ҳалқ сўзи”, “Народное слово”, “XXI аср”, “Даракчи” газеталари, “Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси” журнали.
- **Elektron manbalar**: UzA, Gazeta.uz, Spot.uz, Uz24.uz, Terabayt.uz, Effect.uz, Daryo.uz, Kun.uz ва бошқалар.









# AKT VAZIRLIGI RASMIY VEB-SAYTI VA OMMAVIY KANALLARI

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining rasmiy veb-sayti mavjud bo‘lib (www.mitc.uz), unda doimiy ravishda doimiy ravishda Vazirlikning va tizimdagi tashkilot va korxonalarning faoliyati, respublika va hududlarda raqamlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida, IT-sohasiga oid yangiliklar keng yoritiladi. Shuningdek, Vazirlikning rasmiy veb-saytida turli shaklda (infografika, foto, audio, video, matn shaklida) axborot yetkazib beriladi va yangilanadi.




Shuningdek, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Axborot xizmatining ijtimoiy tarmoqlardagi kuzatuvchilari soni **15 mingdan** ortib, ulardan **Telegram** kanalida – **6 161 ta**, **Facebook da** – 5 748 ta, **Instagram da** – **1 335 ta**, **Youtube da** – **1 060 ta**, **Twitter da** – **200 ta** ko‘zatuvchimiz bor.

**АКТ вазирликнинг ижтимоий тармоқлардаги аккаунтлари:**

https://t.me/mitcuz

https://twitter.com/uz_mitc

https://www.facebook.com/mininfocom/

https://www.instagram.com/mitc.uz/

https://www.youtube.com/c/MinistryofICTofUzbekistan/about

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!